

O'ZBEKISTONDA QUYONCHILIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING MUOMMOLARI

Yangiboyev A.E., Yusupov O.Y.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali, q.x.f.n., dotsenti*

Mamanov D.Sh.

-Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi (PhD) tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda sharoitida quyunchilikni rivojlantirish va uning muommalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, o'rganishlar to'g'risida adabiyotlar taxlili ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: quyon, muommo, go'sht, ratsion, parhez, quyon zotlari, mikroiklim, saqlash, katak.

Abstract: This article provides information on the literature analysis of research and studies on the development of rabbit breeding in Uzbekistan and its problems.

Keywords: rabbit, problem, meat, ration, diet, rabbit breeds, microclimate, storage, cage.

Kirish

Respublikamiz aholisining oziq-ovqat xomashyosi va daromad manbayiga aylanib ulgurgan soxalardan biri bu-quyunchilikdir. Oziq ovqatga shu bilan bir qatorda go'sht va go'sht mahsulotlariga talab ortib borayotgan bugungi kunda mazkur soxa samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masala xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi 29-sonli "Respublikada quyunchilik sohasini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Respublikada quyunchilik sohasini sanoat usulida yanada rivojlantirish, qo'llabquvvatlash va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmini oshirish, sohada import qilinayotgan mahsulotlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda quyunchilik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ahamiyati kattadir. Olib borgan kuzatishlarimiz shunday xulosaga olib keldiki, hozirgi vaqtda tashkil etilgan quyunchilikni rivojlantirish xo'jaliklari zamon talabida emas, yoki quyonlarni oziqlantirish va sifatli go'sht yetishtirish to'g'risida tadqiqotlar olib borilmagan. Quyonlar go'sht uchun boqilganda ularga beriladigan yem sarfi ko'pligi, bo'rdoqilash davrining uzayib ketishi go'sht tannarxining oshishiga olib kelmoqda. Shunday ekan quyonlarni tez yetiltirish, bo'rdoqilashda yem sarfi hamda vaqtni tejash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish va shu orqali aholi iste'moli uchun sifatli go'sht ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kuzatish va tajriba ishlari amalga oshirilishini keng yo'lga qo'yish dolzarb masala hisoblanadi.



Har bir chorvador xo'jalik yuritishda oqilona usullarni qo'llashni, ya'ni kam harajat texnologiyalarni joriy etish evaziga sifatli, raqobatbardosh eksportbop mahsulot yetishtirish yo'llari to'g'risida izlanishlar olib borishlari kerak. Fermer xo'jaliklarida, yordamchi xo'jaliklarda quyonchilikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun barcha toifadagi xo'jaliklarda imkoniyat yetarli.

[5] ko'ra, bugungi kunda qoramolning 94 foizi, qo'y va echkinning 84 foizi, parrandaning 58 foizi aholi xonadonlarida boqiladi. Chorva, parranda va baliq uchun uzluksiz ravishda sifatli ozuqa mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muammoli masalalardan biridir. Importni kamaytirish, mahalliy sharoitda yuqori quvvatli ozuqa yem ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur. Parrandachilikda ozuqaning 85 foizi import qilinib, haligacha ko'p miqdorda soya va kungaboqar shroti, makkajo'xori chetdan olib kelinadi. Ta'kidlanganidek, tarmoqlarda ishlatiladigan texnika va uskunalarni xorijiy davlatlardan import qilishni kamaytirib, ularni o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish payti keldi. Bugungi kunda chorvadorlar uchun zarur hisoblangan somon va pichanni o'ruvchi, to'plovchi oddiy uskunalar ham chetdan keltiriladi. Holbuki, ularni mahalliyashtirish dasturi asosida o'zimizda ishlab chiqarish imkoni mavjud. Shunda ularning narxi ham arzonlashadi, qo'shimcha soliq tushumlari ko'payadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi. Teri, go'sht va momiq jun olish uchun boqilayotgan quyonchilik yo'nalishlari ham rivojlanmoqda. Jumladan, bugungi kunda aholi xonadonlari va quyonchilik xo'jaliklarida 112 ming 600 dan ziyod quyon boqilmoqda. Ularning 66 mingdan ortig'i zotdor quyon hisoblanadi.

[4] Quyonchilik sanoatining evolyutsiyasi, uning shakllanishi ham, hayvonlarni boqish va saqlash sharoitlarining o'zgarishi, quyon go'shti ishlab chiqarishda turli tizimlardan foydalanish ko'plab texnologiyalarni keltirib chiqardi, ular mohiyatan ishlab chiqarish faolligini oshirishga yordam beradi., mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish. Biroq, ba'zida, ko'rinadigan bir lahzalik foyda ortida, katta yo'qotishlar nafaqat oziqlantirish va parvarish qilish sharoitida, balki veterinariya-sanitariya talablariga muvofiqligi. Quyonchilikni intensivlashtirish, ayniqsa, hayvonlarni ochiq havoda alohida qafaslarda saqlashda, mikroiklim parametrlariga katta e'tibor berish uchun o'sish va rivojlanish jarayonlarida unchalik muhim rol o'ynamaydi.

[1] ma'lumotiga ko'ra hozirgi kunda dolzarb vazifalaridan biri respublikamiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat. Chorvachilikda go'sht, tuxum, baliq mahsulotlari bilan bir qatorda quyon go'shti yetishtirish alohida ahamiyatga ega. Quyonning tanasi kichik bo'lsada, beradigan mahsuloti inson uchun juda foydali ekanligini eslatib o'tmoqchimiz. Quyon go'shti sog'liq uchun foydali bo'lib, boshqa go'shtlardan ta'mi va parhez xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yangi muzlatilgan quyon go'shtidan barcha mavsumlarda foydalanish imkonini beradi.

Jaxonda sanoat usulida quyon boqish keng tadbqiq etilgan bo'lib, maxsus kataklarda, yopiq binolarda optimal mikroiklimat sharoiti ta'minlangan holda to'liq ratsion asosida belgilangan ozuqa bilan boqiladi.

[2] ma'lumotida keltirilishicha dunyoda quyon go'shti ishlab chiqarish doimiy ravishda o'sib bormoqda, ammo uning sur'ati va dinamikasi alohida mamlakatlarda ma'lum bir notekislikni ko'rsatadi. Birgina Xitoyning o'zida quyon go'shti ishlab chiqarish so'nggi 15 yil ichida 5,2 barobar oshdi.

Shu bilan birga, parhez go'shtini iste'mol qilish darajasi inson go'shti dietasining 5% ni tashkil qiladi.

[3] ma'lumotlari bo'yicha qayd etilishicha onalik sifati va uyadagi quyonlarning yashovchanligi quyonlarni seleksiyalashda muhim belgi hisoblanadi. Quyonlarda onalik sifatining namoyon bo'lishini o'rganish nafaqat shaxsiy tomorqa quyonchilik xo'jaliklari uchun, balki sanoat miqyosidagi quyonchilik tarmog'i uchun ham muhim sanaladi. Quyon bolalari o'n kunlik yoshigacha ko'zi yumiqlik holda bo'ladi. 19-20 kunligidan uyadan chiqib, mustaqil ravishda ozuqa granulalarini yeya boshlaydi. Agar ona quyon bolalarini yetarlicha emizmasa, uya juda issiq bo'lsa, yoki harorat juda past bo'lsa quyon bolalari uyadan ertaroq chiqishlari ham mumkin.

Xulosa

Quyonchilik fermer xo'jaliklarida ozuqalar sarfini kamaytirish, quyonlar iste'mol qiladigan ozuqalarni hazmlanishini yaxshilash yo'llarini topish, optimal oziqlantirish ratsionini tuzish orqali sifatli go'sht ishlab chiqarish va samaradorlikni oshirish mumkinligi to'g'risida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yetarli emas. Bundan tashqari qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ko'pgina texnikalar va ozuqalar chet ellardan import qilinayapdi. O'zbekistonda quyonlarni oziqlantirish jarayonida mikro va makroelementlar, shuningdek probiotiklarning quyonlar go'shti sifati va xavfsizligiga ta'siri o'rganilmagan va ilmiy asoslangan ma'lumotlar mavjud emasligini hisobga olib, kerakli tavsiyalar ishlab chiqish zarur deb o'ylaymiz.

Foylangan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.X.Xolmatov, R.Ruziev, Sh.K.Mamatiminov, K.Xidirov, A.Komilov. Quyonlarni boqish, parvarishlash, ko'paytirish va davolash bo'yicha o'quv qo'llanma Toshkent 2019.

2. Dubinina, M.B. Mirovye proizvodstvo produkcii krolikovodstva / M.B. Dubinina // Voprosy krolikovodstva. – 2019. – № 5. – S. 15–19.

3. Plotnikov, V.G., Firsova N.M. Quyonlarni ko'paytirish, oziqlantirish va ushlab. – M.: Agopromizdat, 1989. – 223 b.

4. Sofronov V.G. – tarix fanlari doktori, professor, rahbar. Bo'lim; *Efremov A.P., *Arjakov V.N., *Kosenkova N.A., *Nikolaenko T.M.FSBEI HPE KGAVM, tel. (843) 2739775*FSBEI HPE "Omsk davlat agrar universiteti".

5. <http://m.xabar.uz/uz/iqtisodiyot/chorva-parranda-baliqchilik-va-quyonchilik-qaerda>.